

**KONSTITUTSIYA – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING
MUHIM TAYANCHI**

Sanaqulov Sardor Istamqulovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute
“Fundamental va gumanitar fanlar” kafedresi assistenti

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi harakatlarimizning asosi va poydevori bo‘lib xizmat qiladigan bosh qomusimiz, adolat tarozisi hisoblangan Konstitutsiya, xalqimizning, ertangi kuni hamda farovonligini ta‘minlashda dolzarb vazifa ekanligi ta‘kidlangan. Konstitutsiya davlat tuzilishini, uning boshqaruv shaklini, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini, shaxsning huquqi, erkinligi va burchlarini belgilab qo‘yadi. Unga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekanligi e‘tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat suvereniteti.

Annotation: In the article, it is emphasized that the Constitution, which serves as the basis and foundation of our efforts to build a new Uzbekistan with a balance of justice, is an urgent task in ensuring the future and well-being of our people. The constitution determines the structure of the state, the form of its administration, the procedure for establishing state bodies, their powers, and the rights, freedoms, and duties of the individual. According to it, a person's life, freedom, honor, dignity, and other inalienable rights are recognized as values.

Keywords: New Uzbekistan, democracy, freedom and equality, social justice, human rights and freedoms, national and universal values, state sovereignty.

Аннотация: В статье подчеркивается, что наш головной убор, являющийся основой и фундаментом наших усилий по созданию нового Узбекистана,

Конституция, являющаяся весами справедливости, является неотложной задачей в обеспечении завтрашнего дня и благополучия нашего народа. Конституция устанавливает структуру государства, его форму правления, порядок образования государственных органов, их полномочия, права, свободы и обязанности личности. По нему высшими ценностями признавались человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, демократия, свобода и равенство, социальная справедливость, права и свободы человека, национальные и общечеловеческие ценности, государственный суверенитет

Kirish. Bugun jonajon O`zbekistonimiz o`z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo`ydi. Bu yo`lda u dunyoning ko`plab mamlakatlari hamda yirik tashkilotlari bilan faoliyatning turli sohalari bo`yicha do`stona hamkorlik qilib kelmoqda. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari va nufuzli yirik tashkilotlari mamlakatimizning rivojlanishi hamda salohiyatiga yuqori baho berib, e`tirof etib kelayotganligini ta`kidlashimiz zarur. Mamlakatimiz qisqa davr mobaynida jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallashga asos bo`ladigan ulkan yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlarning pirovard maqsadi Yangi O`zbekistonni barpo etish hisoblanadi. Yangi O`zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume`tirof etilgan norma va prinsiplarga qat`iy amal qilinishi bilan xarakterlanadi. Yangi konstitutsiya esa bizning strategik maqsadimizni amalga oshirishda bosh huquqiy asos, adolat mezonini bo`lib xizmat qiladi.

Konstitutsiya - insoniyatning necha asrlik ijtimoiy taraqqiyoti natijasida erishilgan qadriyati, har kimga dasturulamal bo`lib kelayotgan, uning yo`lini yoritayotgan nur, adolat mezonidir. Har qanday qudratli va rivojlangan mamlakatni, o`zining davlat boshqaruvida asosiy qonuni hisoblangan konstitutsiyasini yaratib, yangilab borishi uning mavqeini belgilab beradi.

O`ttiz ikki yil - tarixiy davrda jonajon O`zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o`rin egalladi, tom ma`noda ulkan o`zgarishlar va taraqqiyot yo`lini bosib o`tdi. Ushbu mashaqqatli va sharaflil yo`lda

erishgan barcha yutuqlarimiz, g'alabalarimizni konstitutsiyamizga bog'lashimiz, bejiz emas. Nega deganda, asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, fuqarolarimizning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini yuksaltirib bordi.

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o'zining taraqqiyot tongiga qarab intiladi. Tabiatning buyuk hodisasi bo'lgan quyoshning har erta saharda olamga yuz ko'rsatishi qanchalik go'zal va jozibali bo'lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanishlar davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o'z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho'qqilarga ko'tariladi. Nisbatan qisqa davrda erishilgan ulug' marralar jahon ahlini lol qoldiradi. Yer yuzidagi ba'zi xalqlargagina nasib etadigan bunday yuksak ko'tarilish va taraqqiyot zamonlarining o'ziga xos Uyg'onish, ya'ni Renessans davri, deb atalishining sababi ham ana shunda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad – muddaosiga aylandi[2;4-5].

Mamlakatimiz hayotida joriy 2023-yil 30-aprelida muhim tarixiy hodisa yuz berdi: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90.21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat beradi.

1992-yili qabul qilingan hamda bir necha marotaba tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat edi. Yangilangan Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan tashkil topgan bo'lib, normalar soni 275 tadan 434 taga oshganligini asosiy qonunimizda ko'rish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga

oshirishning siyosiy - huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini belgilab berdi deyish mumkin. Referendum ko`p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo`ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Konstitutsiyaning oldingi variant 1-moddasida “O`zbekiston - suveren demokratik respublika” deb qayd etilgan edi. Yangilangan Konstitutsiyamizga to`xtalib o`tsak u quyidagicha mukammallashtirildi: “O`zbekiston – boshqaruvning Respublika shakliga ega bo`lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deyilgan. Unda oldingi Konstitutsiyamizda bo`lmagan yangi uch xususiyatni aks etganligiga guvoh bo`lamiz. “Huquqiy” so`zi davlat va fuqarolar qat`iy qonunga bir xilda amal qilishi orqali faoliyat olib borishligi, “ijtimoiy” atamasi esa aholining keng qatlamlari manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy adolat va himoya tizimini joriy etishini, “dunyoviy” so`zi eng rivojlangan mamlakatlar qatorida bo`lishimiz uchun muhim asos bo`lishi uchun tashlangan qadamdir. Asosiy qonunimizda “Inson-jamiyat-davlat” tamoyilini ilgari surilganligi barcha islohotlarimizning asosida xalqimizning davlatdan rozi bo`lib yashashi, yurtimizda amalga oshirilayotgan o`zgarishlarga daxdorlik hissini uyg`otishi shubhasizdir. Shuning uchun ham 30-aprelni haqli ravishda burilish nuqtasi deyish mumkin.

Yangi qabul qilingan konstitutsiyamizning biron bir moddasi 1992-yilgi konstitutsiyamizga teskari yoki zid emas. Shunga ko`ra, yangi asosiy qonunimizni “yangi tahrirdagi Konstitutsiya” yoki “yangilangan Konstitutsiya” deb ta`kidlashimiz mumkin.

Inson huquqlarini himoya qilish-konstitutsiyaning asosiy prinsipi bo`lib, O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy

yo`nalishi va pirovard maqsadi hisoblanadi[3;258].

Inson va uning huquq va erkinliklarini ro`yobga chiqarish yo`llaridan biri inson va fuqarolarning o`z huquqlarini himoya qilishlaridir[4;216].

Konstitutsiyaning 13-moddasida O`zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsplarga asoslanadi, ularga ko`ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratiya huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi deyilgan. Bu moddaning o`zida mamlakatimizda inson qadri tushunchasi eng oliy darajaga ko`tarilganligini yorqin ifodasidir.

Xususan, bosh qomusimizda “nogironligi bor shaxs”, “aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari”, “intellektual mulk”, “nodavlat ta`lim tashkilotlari”, “maktabgacha ta`lim”, “inklyuziv ta`lim va tarbiya”, “boshlang`ich professional ta`lim”, “fuqarolarning bandligini ta`minlash”, “kambag`allikni qisqartirish” singari qator o`zgarishlar asosiy qonunning oldingi variantida yo`q edi.

Yangi Konstitutsiyamizda ta`lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o`qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo`ldi deyish mumkin. Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar ta`lim sohasiga oid ko`plab modda va normalarda ham o`z ifodasini topdi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang`ich kasb-hunarga o`qitilishi ham belgilab berildi.

Nogironligi bor bolalarga o`z tengdoshlari bilan bir xil ta`lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko`zda tutilyapti. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inklyuziv ta`lim sifatida Konstitutsiyaga kiritildi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to`laqonli a`zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolat bo`lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyada davlatning o`qituvchilar sha`ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o`sishi to`g`risida g`amxo`rlik qilish majburiyati oshmoqda. Oliy ta`lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o`zini o`zi boshqarish, tadqiqotlar o`tkazish va o`qitish erkinligi huquqi taqdim etilmoqda. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o`qituvchilar va

talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz. Zero har qanday davlatning qudrati o'z yurtidagi ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborida ekanligi bilan belgilanadi.

Bugungi kun o'z oldiga ko'plab yechimi kutilayotgan muammolarni qo'yib kelayotganligi barchamizga ma'lum. Bu muammolar sirasiga, ekologiya va atrof-tabiiy muhit va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi dolzarb vazifalarni qo'yish mumkin. Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar o'zining ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi uchun asosiy qonunida, dasturlarida, chora-tadbirlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratib keladi.

Bosh qomusimizda fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar deyilgan. Biz kundalik turmush tarzimizda, ish faoliyatimizda ushbu burchimizni to'g'ri anglagan holda yashashni o'z oldimizga aniq maqsad qilib olishimiz zarur. Inson qachonki o'z huquq va erkinliklarini, burch va majburiyatlarini aniq bilsagina o'zini va atrofini obod maskanga aylantiradi.

Insonda tasavvur o'zgarishi kerak va nima uchun? Biz o'z tasavvurlarimizni va intellektual salohiyatimizni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning boy merosi va o'gitlari, ustozlarni beminnat xizmatlari, kitob mutolaasi, gazeta va jurnallarni o'qib-o'rganishni nazarda tutamiz. Shu bois, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat Konstitutsiyani o'qishimiz, o'rganishimiz asnosida, o'zimizning shaxsiy huquq va erkinliklarimiz, burch va majburiyatlarimiz qanday ekanligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, siyosiy huquqlarimiz, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik singari huquqlarimizni bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Hech

shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi, e'tirofi bo'lgan Konstitutsiyamiz yangi-yangi avlodlar uchun adolat mezoni, davrning o'zi o'rtaga tashlaydigan dolzarb muammolarni yechish yo'lida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.:(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, Lex.uz.01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.–T.: 2021. –B.69.
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.–T.: O‘zbekiston, 2022. –B.4-5.
4. O‘zbekiston Yuridik ensiklopediyasi– T.: Adolat,2010. – B.216.
5. Mo‘minov A.R, Tillaboyev M.A.Inson huquqlari darslik, ikkinchi nashr.–T.: Adolat, 2013. –B.258.